

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

NAZAROVA RAYXON SHAVKATOVNA

**XILARI MANTEL TRILOGIYASINING TARIXIY ROMAN JANRI
KONTEKSTIDAGI BADIY O'ZIGA XOSLIGI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Nazarova Rayxon Shavkatovna

Xilari Mantel trilogiyasining tarixiy roman janri kontekstida badiiy o‘ziga xosligi.....	3
--	---

Назарова Райхон Шавкатовна

Художественное своеобразие трилогии Хилари Мантел в контексте жанра исторического романа.....	25
---	----

Nazarova Raykhon Shavkatovna

Artistic Originality of Hilary Mantel’s Trilogy in the Context of a Historical Novel.....	49
---	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ	
-----------------------------	--

List of published works.....	53
------------------------------	----

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

NAZAROVA RAYXON SHAVKATOVNA

**XILARI MANTEL TRILOGIYASINING TARIXIY ROMAN JANRI
KONTEKSTIDAGI BADIY O'ZIGA XOSLIGI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5004 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxammedova Nilufar Eliboyevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyeva Feruza Melsovna
filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (+99871) 230-12-91; faks: (+99871) 230-12-92; email: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (+99871) 230-12-91; faks: (+99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” kuni tarqatildi.

(2026-yil “_____” dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy ifoda shakllarining yangilanishi kuzatilmoqda. Tarixiy roman janriga postmodernistik, metatarixiy, milliy-madaniy, postkolonial yondashuvlar negizida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati qayta ko‘rib chiqilayotgani bois klassik va zamonaviy yozuvchilarning tarixiy voqelikni badiiy ifoda etish mahoratini tahlil qiluvchi mezonlar o‘zgarishga yuz tutmoqda. Tarixiy roman janrining yangilanishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biri – postmodernizm ta’siridir. XXI asrda tarixiy romanlardagi hikoya markazi tarixiy voqealardan o‘tmishning ekstremal sharoitlariga tushib qolgan qahramonning ichki dunyosiga siljimoqda. Ilgari e’tibordan chetda qolgan yoki noaniq baholangan shaxslar yozuvchilar diqqat markazida bo‘lmoqda.

Dunyo adabiy maydonida tarixiy roman janriga tarixiy voqelikni qayta yaratish mezoni asosida emas, balki xotira va identitet masalalari, madaniy hamda siyosiy kontekstlarni hisobga olgan holda yondashgan postmodernizm tarixiy tafakkur va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida talqin qilmoqda. Bunda muallif tarixni qayta quradi, hatto alternativ versiyalarni taklif qiladi. Shu nuqtayi nazardan, X.Mantel trilogiyasi tarixiy roman janri transformatsiyasining yorqin namunasi bo‘lib, o‘tmishni anglashga yangi yondashuvlarni namoyish etadi. Uning romanlari innovatsion shakli va hikoya uslubi, tarixiy qahramonning yangi turi hamda Buyuk Britaniya tarixiy o‘tmishining muqobil tasavvuri bilan ajralib turadi. Bu asarlar janrni boyitibgina qolmay, balki mamlakatning madaniy-tarixiy qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishga ham hissa qo‘shgan, bu esa ularni tarixiy roman evolyutsiyasi tizimida ilmiy tahlil uchun muhim obyektga aylantiradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida jahon adabiyoti durdonalarini tahlil qilishga jiddiy e’tibor qaratiladi. X.Mantel kabi xorijiy mualliflarning tarixiy romanga bo‘lgan innovatsion yondashuvlarini o‘rganish milliy filologiyaning metodologik bazasini va nazariy ufqlarini kengaytirishga yordam beradi. Bu nafaqat universal tendensiyalarni chuqurroq anglashga, balki zamonaviy o‘zbek tarixiy nasrining keyingi taraqqiyoti uchun potensial yo‘llarni aniqlashga ham yordam beradi, shuningdek, qiyosiy tadqiqotlarni rag‘batlantiradi. Madaniy meros va badiiy so‘z ahamiyatining yuqori baholanishi – madaniyatlararo aloqalarni chuqur tushunishga qaratilgan bunday tadqiqotlarning dolzarbligini tasdiqlaydi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san’atining o‘rni va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda”¹.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. Elektron resurs: <https://president.uz/ru/lists/view/1926> (Murojaat sanasi: 06.09.2024).

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 9-dekabrdagi PQ-36-son “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-380-son “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy -huquqiy hujjatlardagi vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. X.Mantel ijodi va tarixiy roman janrini o‘rganish sohasida ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Ular orasida mamlakatimiz tadqiqotchilarining, xususan, M.Nizamova, U.Qosimov, D.Muxiddinova, G‘.Murodov, T.Boboyev, D.Quronov, D.O‘rayeva, B.To‘rayeva, N.Karimova va O.Akbarov² kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari tarixiy roman janrining umumiyligi muammolariga, shuningdek, zamonaviy nasrda milliy o‘zlik va madaniy xotira masalalariga qaratilgan.

MDH mamlakatlari adabiyotshunoslari va tilshunoslari orasida M.Baxtin, A.Dolinin, V.Jirmunskiy, A.Elistaratova, B.Proskurnin, M.Dezorseva, K.Zinovyeva, M.Rogachevskaya, I.Kabanova³ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari xronotopning

² Низамова М.Н. Концепция истории в английском романе рубежа XX-XXI веков. Литературный процесс на рубеже XX-XXI веков / под общ. ред. Жураевой И.А. Монография. – Нижний Новгород: НИЦ Открытое знание, 2021. – С. 142-159; Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an’naviyilik, vorisiyilik, o‘ziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida). Filol. fan. d-ri. ... dis. avtoref. – Т., 2020. – 46 б.; Мухиддинова Д.М. Британия адабиётида тарихий роман жанрининг қисқача тарихи. – ZDFIT, 2023. – № 2 (17). – Б. 50-52. – <https://doi.org/10.5281/zenodo.8084862>; Муродов F. Мозий ва бадиий адабиёт. – Бухоро, “Бухоро” нашриёти, 1994. – 93 б.; Муродов F. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараккиёти. – Т.: Фан, 2005. – 172 б.; Муродов F., Темирова Д. Тарихий романда сюжет муаммоси. – Т.: Фан, 2008. – 40 б.; Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Т.: O‘zbekiston, 2001. – 560 б.; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 224 б.; Тўраева Б., Ўраева Д. Тарихий роман сюжетида вақт тушунчасининг коинот ва табиатга оид билимлар орқали ифодаланиши // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – Т., 2016. – № 4 (12). – Б. 192-199; To‘rayeva B.B. Tarixiy romanlar badiiy zamonining adabiy-estetik kategoriyalari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – Т., 2024. 10-jild. – № 5. – Б. 181-194; To‘rayeva B. O‘zbek tarixiy romanlarida badiiy zamon konsepsiysi. Monografiya. – Toshkent, 2023. – 145 б.; Karimova N. Zamон ta’skisi: adabiyotda tarixiy roman tushunchasi. Farg‘ona davlat universiteti. – Farg‘ona, 2024. – № 30 (3). – В. 718-722; Акбаров О.А. Национальная идентичность и культурная память в современной прозе // Научный вестник ФерГУ. – Ф., 2024. – №6 (30). – С. 427-430.

³ Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе: очерки по исторической поэтике. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 121-290; Бахтин М.М. Собрание сочинений. Т.3: Теория романа (1930-1961 гг.). – М., 2012. – 880 с.; Бахтин М.М. Собрание сочинений. Т. 4 (1): Франсуа Рабле в истории реализма (1940 г.). Материалы к книге о Рабле (1930-1950-е гг.). – М., 2008. – 1120 с.; Долинин А.С. История, одетая в роман: Вальтер Скотт и его читатели. – М.: Книга, 1988. – 320 с.; Жирмунский В.М. Введение в литературоведение: Курс лекций. – СПб., 1996. – 440 с.; Елистратова А.А. Скотт // История английской литературы. Т. 2. Вып. 1. – М., 1953. – 392 с.;

xususiyatlari, tarixiy roman janri muammolari, postmodernizm va X.Mantelning tarixiy nasriga qaratilgan.

G‘arb adabiyotshunoslaridan G.Lukach, E.Beyker, L.Hatcheon, R.Arias, D.Uolles, L.Fletcher, A.Jonston, L.Arnold va J. de Grut⁴ kabi olimlar tarixiy roman va X.Mantel ijodi borasida salmoqli tadqiqotlarni yaratdilar.

Biroq sanab o‘tilgan tadqiqotlarda X.Mantel trilogiyasini tarixiy roman janrining transformatsiyasi kontekstida, ayniqsa, uning postmodern xususiyatlarini hisobga olgan holda badiiy o‘ziga xosligini o‘rganish yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli tarixiy roman janrida X.Mantel mahoratining shakllanishi va evolyutsiyasini o‘rganish keyingi izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasining “Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” ustuvor ilmiy yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xilari Mantelning tarixiy trilogiyasining badiiy o‘ziga xosligini tarixiy roman janri kontekstida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

an’anaviy tarixiy roman janri transformatsiyasi, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima tasviridagi mutanosiblikni ta’minlashda X.Mantel adabiy mahoratini aniqlash;

X.Mantelning milliy miflarni badiiy dekonstruksiya qilishdagi o‘ziga xos yondashuvini aniqlab, ularning Angliya tarixi va milliy identiklikni shakllantirishdagi

Проскурнин Б.М. Историческая дилогия Хилари Мантел и «Память жанра» // Филологический класс, 2016. – № 2 (44). – С. 77-83; Проскурнин Б.М. Современный английский исторический роман: традиция и диалог с нею // Мировая литература в контексте культуры, 2023. – № 16 (22). – С. 23-32; Дезорцева М.А. «Волчья» метафора в исторических романах Хилари Мантел о Томасе Кромвеле // Мировая литература на перекрестье культур и цивилизаций, 2019. – № 1 (21-25). – С. 14-21; Рогачевская М.С. Историческая трилогия Хилари Мантел: средневековый хронотоп и современный дискурс / Языковая личность и эффективная коммуникация в современном поликультурном мире: материалы VII Междунар. науч.-практ. конф., посвящ. памяти Д.О. Половцева. – Минск, 2021. 28-29 окт. / Белорус. гос. ун-т; редкол.: С.В. Воробьёва (гл. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2021. – С. 32-36; Рогачевская М.С. Новые формы психологизма в британском романе XX века. автореф. дис. докт. фил. наук. / БГУ. – Минск, 2018. – 55 с.; Кабанова И.В. Психология власти в романе Х.Мантел «Зеркало и свет» // Изв. Сарат. ун-та Нов. сер. Сер. Филология. Журналистика, 2022. – № 3. – С. 342-350; Кабанова И.В. Оценщик рисков: образ Томаса Кромвеля в исторической прозе Хилари Мантел // Изв. Сарат. ун-та Нов. сер. Сер. Филология. Журналистика, 2013. – № 1. – С. 49-57.

⁴ Lukács G. The Historical Novel. Penguin Books. – Harmondsworth, 1969. – 435 p.; Baker E.A. The History of the English Novel. V. 6. Edgeworth, Austen, Scott., Barnes & Noble, 1961. – 277 p.; Hutcheon L. Historiographic Metafiction Parody and the Intertextuality of History // Intertextuality and Contemporary American Fiction. Ed. O’Donnell P., & Robert Con Davis. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1989. – P. 3-32; Arias R. An interview with Hilary Mantel. Atlantis: Revista de la Asociación Española de Estudios Anglo Norteamericanos, 1998. Vol. 20 (2). – P. 277-289; Wallace D. Difficulties, discontinuities and differences: Reading women’s historical fiction. In: Cooper K., Short E. (eds) The Female Figure in Contemporary Historical Fiction. – London: Palgrave Macmillan, 2012. – P. 206-221; Fletcher L. Hilary Mantel: Raising the dead, speaking the truth // University of Tasmania, 2017. – P. 37-47; Johnston A.J. 27. Hilary Mantel, the Thomas Cromwell Trilogy (2009). In Handbook of the English Novel in the Twentieth and Twenty-First Century, edited by Christoph Reinfandt. – Berlin: De Grutyer, 2017. – P. 536-554; Arnold L. Reading Hilary Mantel. Haunted Decades. – London: Bloomsbury Academic, 2019. – 240 p.; De Groot J. Transgression and Experimentation. The Historical Novel // In the Cambridge Companion to British Fiction. 1980-2018, edited by P.Boxall. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – P. 169-184; De Groot J. Remaking History. The Past in Contemporary Historical Fictions. – London: Routledge, 2016. – 246 p.; De Groot J. Consuming History. Historians and Heritage in Contemporary Popular Culture. – London: Routledge, 2016. – 332 p.

rolini dalillash;

Tomas Kromvel obrazining o‘ziga xosligini tavsiflash va uni muallif tomonidan yaratilgan tamoyillarini hisobga olgan holda prototipning yangi modelini yaratish uslubini baholash;

X.Mantelning hikoya qilish shakli bilan bog‘liq narratologik yondashuvi negizida tarixiy romanning yangi modelini shakllantiruvchi badiiy omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida X.Mantelning “Tyudorlar trilogiyasi”ga kiruvchi “Vulphol/Bo‘rilar zali” (“Wolf Hall”, 2009), “Ayblanuvchilarni keltiring/Jasadlarni olib keling” (“Bring Up the Bodies”, 2012) va “Ko‘zgu va yorug‘lik” (“The Mirror and The Light”, 2020) asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti X.Mantel trilogiyasining badiiy o‘ziga xosligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari sifatida madaniy-tarixiy, biografik, narratologik germenevtik va mifopoetik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xilari Mantel tarixiy romanlaridagi janr transformatsiyasi epik voqealar tasviridan tarixni shaxsiy idrok etish, milliy pafosdan mifni dekonstruksiya qilish, an’anaviy realizmdan “ayol nasri” elementlarini o‘z ichiga olgan postmodern subyektivlikka o‘tish orqali namoyon bo‘lishi XIX-XX asrlardagi janr kanonlari asosida dalillangan;

milliy miflar badiiy dekonstruksiyasi monarxiyaning mafkuraviy rolini qayta baholash, tarixdagi byurokratik subyektni ilgari surish va ingliz tarixiy romanida tasvirning statik modelini qayta ko‘rib chiqish imkonini berishi madaniy-tarixiy tahlil negizida asoslangan;

Tomas Kromvel orqali tarixiy roman qahramonining yangi modelini shakllantirilishi, muallifning personajlar taqdiri orqali tarixiy voqealarni tasvirlash istagi, hikoyani Kromvel tilidan bayon etilishi, hokimiyat, axloq va shaxsiy tanlov masalalarini dolzarblashtirish maqsadida zamonaviylikning parallel ifodasi biografik tahlil asosida aniqlangan;

Xilari Mantelning hikoya qilish uslubiga xos novatorligi, ya’ni uchinchi shaxs olmoshini qo‘llashdagi o‘ziga xoslik va hikoya dramatizmi tarixiy romanning yangi modelini shakllantirishda muhim adabiy-estetik omil hisoblanishi narratologik tahlil asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarixiy romanning janriy o‘ziga xosligi va rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda talqin qilishga oid takliflar hamda asosli yondashuvar ishlab chiqilgan. Bu akademik va tanqidiy amaliyotda ushbu janrni chuqurroq hamda har tomonlama talqin qilish imkonini yaratadi;

X.Mantel trilogiyasi misolida zamonaviy tarixiy romanning badiiy o‘ziga xosligini kompleks o‘rganish, muallifning individual ijodiy uslubini va XX-XXI asr tarixiy romanining xususiyatlarini tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi asliyatdan foydalanilganligi, obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy

ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlangan tarixiy romanlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar narratologik, madaniy-tarixiy, germenevtik, mifopoetik va biografik tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar X.Mantel ijodining tarixiy roman janri kontekstida va uning yozuvchilik ijodining evolyutsiyasini o'rganishga oid mavjud ma'lumotlarni kengaytirishi, an'anaviy tarixiy roman va psixologik roman uyg'unligi, real tarix va badiiy to'qima sintezi, zamonaviy til va uslubga doir ilmiy-nazariy muammolarni o'rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tarixiy romanining badiiy xususiyatlarini va uning nazariy xususiyatlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajara olishi, "Adabiyot nazariyasi", "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti", "Angliya adabiyoti", "Adabiy-badiiy tahlil usullari", "Adabiy tanqid tarixi", "Adabiy oqimlar evolyutsiyasi" kabi fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishda, fakultativ darslar va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarinig joriy qilinishi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar asosida quyidagilar amalga oshirilgan:

Xilari Mantel tarixiy romanlaridagi janr transformatsiyasi epik voqealar tasviridan tarixni shaxsiy idrok etish, milliy pafosdan mifni dekonstruksiya qilish, an'anaviy realizmdan "ayol nasri" elementlarini o'z ichiga olgan postmodern subyektivlikka o'tish orqali namoyon bo'lishi XIX-XX asrlardagi janr kanonlari asosida dalillanganiga oid xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativistika" elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 22-avgustdagi 01/488-son ma'lumotnomasi). Natijada Xilari Mantel uslubining o'ziga xos xususiyatlari va uning tarixiy nasr rivojiga ta'siri haqidagi xulosalar loyiha doirasida yaratilgan elektron platformani boyitishda keng foydalanilgan;

milliy miflar badiiy dekonstruksiysi monarxiyaning mafkuraviy rolini qayta baholash, tarixdagi byurokratik subyektni ilgari surish va ingliz tarixiy romanida tasvirning statik modelini qayta ko'rib chiqish imkonini berishi madaniy-tarixiy tahlil negizida asoslanganiga oid ilmiy-nazariy ma'lumotlardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil qilingan adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan ijodiy uchrasuvlarda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 27-oktabrdagi 01-03/336-son ma'lumotnomasi). Natijada taqdim etilgan xulosalar yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

Tomas Kromvel orqali tarixiy roman qahramonining yangi modelini shakllantirilishi, muallifning personajlar taqdiri orqali tarixiy voqealarni tasvirlash istagi, hikoyani Kromvel tilidan bayon etilishi, hokimiyat, axloq va shaxsiy tanlov masalalarini dolzarblashtirish maqsadida zamonaviylikning parallel ifodasi biografik

tahlil asosida aniqlanganiga doir ilmiy natijalardan Erasmus+ dasturida amalga oshirilgan ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419 xalqaro ilmiy-amaliy loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 6-dekabrdagi 01/778-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu loyiha asosida yaratilgan o‘quv adabiyotlarining kontenti X.Mantel hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar bilan takomillashtirilgan;

X.Mantelning hikoya qilish uslubiga xos novatorligi, ya’ni uchinchi shaxs olmoshini qo‘llashdagi o‘ziga xoslik va hikoya dramatizmi tarixiy romanning yangi modelini shakllantirishda muhim adabiy-estetik omil hisoblanishi narratologik tahlil asosida isbotlanganiga oid xulosalardan 2024-yilda nashr etilgan “History of Literary Criticism” (ro‘yxatga olish raqami №275-10) nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 4-noyabrdagi 01/4374-son ma’lumotnomasi). Natijada nazariy ma’lumotlar o‘quv qo‘llanma mazmunini boyitishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSEBTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XX-XXI asrlarda Angliyada tarixiy roman janrining rivojlanishi”** deb nomlangan birinchi bobida tarixiy roman janrining klassik shakllaridan postmodernistik modifikatsiyalargacha bo‘lgan tadrijiy taraqqiyoti ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, postmodernizmning tarixiy roman janrining yangi belgilarini shakllantirishdagi ta’siriga alohida e’tibor qaratildi. Tarixiy fakt, badiiy to‘qima va tarixiy haqiqatni badiiy idrok etishning turli usullari o‘rtasidagi munosabatga oid konsepsiylar tahlil qilindi. Postmodernistik diskurs sharoitida muallif va kitobxonning tarixiy narrativni konstruksiya qilish jarayonidagi roli qayta baholanishi asoslanadi. Qayd etilishicha, aynan janrdagi ushbu o‘zgarishlar

X.Mantel trilogiyasining o‘ziga xosligini tushunishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “XX-XXI asrlarda ingliz tarixiy romanlarining janr xususiyatlari” deb nomlangan bo‘lib, unda B.M. Proskurnin, S.Sh. Sharifova, T.Y. Osadchaya, J. de Grut⁵ va boshqalarning tadqiqotlari asosida ingliz adabiyotida tarixiy roman janrining an’anaviy shakli modifikatsiyasiga ta’sir ko‘rsatgan sabablar aniqlangan. An’anaviy tarixiy roman janrlar sintezi va postmodernizm ta’sirida o‘zgarganligi asoslangan. Tarixiy roman janrining dinamikasini ohib berish maqsadida, an’anaviy tarixiy roman shaklining beshta asosiy tarkibiy qismi aniqlangan: tipik qahramonlar, keng epik ko‘lam, xalqchillik, tarixiy zarurat va o‘tmish bilan hozirgi zamon bog‘liqligi.

Madaniy-tarixiy tahlil asosida XX va XXI asr tarixiy romanlaridagi asosiy o‘zgarishlar aniqlandi. XX va XXI asrlarda ingliz yozuvchilari tobora ko‘proq muhim ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar davriga⁶ murojaat qilmoqda, bunday tarixiy romanlarning syujeti esa qahramonlarning psixologik-tahliliy o‘z-o‘zini anglashiga qaratilgan⁷. Bunday romanlarda markaziy o‘rinni tarixchilar va XIX asr yozuvchilari tomonidan ilgari e’tibordan chetda qolgan yoki yetarlicha yoritilmagan tarixiy shaxslar hamda voqealar egallaydi. Postmodernizmning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siri kuzatilmoqda, bu an’anaviy janr qoliplari bilan o‘ynash, metanasr⁸ va intertekstuallik usullaridan foydalanish bilan ajralib turadi. Masalan, neotarixiy⁹ (E.Russelot tomonidan taklif qilingan termin) roman janrining klassik an’analari va zamonaviy adabiy texnikalarini birlashtiradi, qahramonlarning psixologiyasiga ko‘proq e’tibor qaratadi va tarixiy tafsilotlarning haqqoniyligiga jiddiy ahamiyat bermaydi.

Shuningdek, tarixiy roman postmodernistik tarixning qayta talqin etilishi natijasida jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirgan¹⁰. Zamonaviy ingliz tarixiy romanlaridagi yana bir innovatsion jihatlardan biri muallifning ikkinchi planga chekingan roli bo‘lib qoldi, bu quyidagi jumla bilan izohlanadi: “[muallif] tarix qanday yo‘nalishda rivojlanganligini bilishga ega bo‘lishdan to‘xtamagan (roman yozilish vaqt bilan hikoya qilingan voqealar vaqt o‘rtasidagi vaqt bo‘shlig‘i orqali zarur bo‘lganligi sababli), lekin muallif endi o‘tmish voqealariga o‘z qarashlarini bevosita majburlamagan, garchi syujet, albatta, kitobxonlarga ma’lum tarix yo‘nalishi

⁵ Прокурин Б.М. «После постмодернизма»: о динамике жанра исторического романа. Заметки на полях книги Джерома де Гроота // Вестник Пермского университета. Серия «Отечественная и зарубежная филология», 2013. Выпуск 3 (23). – С. 215; Шарифова С.Ш. Жанровое смешение в романе: коммуникативно-социокогнитивный подход. – Москва: Московский Парнас, 2011. – С. 113; Шарифова С.Ш. Современные тенденции развития романа и их влияние на жанровое смешение // Известия Самарского научного центра РАН, 2011. – № 2 (5). – С. 1236; Шарифова С.Ш. Соотношение жанрового смешения со «Смешением» жанра, «Диапазоном» жанра и его переходными формами // Rhema, 2010. – № 3. – С. 53; Осадчая Т.Ю. Семантическое ядро жанра «экзистенциалистский роман» в современной литературе // Учёные записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Филологические науки, 2018. – № 3. – С. 109; De Groot J. The Historical Novel. The new critical Idiom. – London: Routledge, 2010. – Р. 2.

⁶ Прокурин Б.М. О некоторых тенденциях развития современной английской литературы (судьбы романа в Англии 1980-2000-х гг.) // Мировая литература в контексте культуры, 2013. – № 2 (8). – С. 47; Хитарова Т.А. Особенности английской литературы XX-XXI веков // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики, 2023. – № 6 (2). – С. 205.

⁷ Прокурин Б.М. Историческая дилогия Хилари Мантел и «память жанра» // Филологический класс, 2016. – № 2 (44). – С. 80.

⁸ Колобова К.С. Метафикациональная игра в произведении Г.Грасса «Моё столетие» // Litera, 2017. – № 4. – С. 59-60.

⁹ Rousselot E. Introduction: Exoticising the past in contemporary neo-historical fiction. In Elodie Rousselot (ed.). – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2014. – Р. 4-5.

¹⁰ Толстых О.А. Английский постмодернистский роман конца XX века и викторианская литература: интертекстуальный диалог (на материале романов А.С. Байетт и Д.Лоджа). автореф. канд. филол. наук. Урал. гос. ун-т им. А.М. Горького. – Екатеринбург, 2008. – С. 10.

bo‘yicha rivojlangan”¹¹.

Tarixiy nasr yozuvchilari ikki yo‘nalishda faoliyat yuritadi: a) an’anaviy – XIX asrning klassik kanonlariga amal qilgan holda; b) eksperimental – janr kanonlarini qayta ko‘rib chiqib, modernistik va postmodernistik usullardan foydalanish orqali. XXI asrda tarixiy nasr yozuvchilari o‘tmishning yagona, obyektiv versiyasidan voz kechib, ilgari tarixiy diskursdan chetlatilgan turli ijtimoiy guruhlarga so‘z beradi.

Dissertatsiya bobining “*Tarixiy roman muammolari: haqiqat va to‘qima o‘rtasidagi nisbat*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida yirik voqealarni tasvirlashda tarixiy haqiqatga rioya qilish zarurati muhokama qilinadi. Shuningdek, tarixiy romanning mustaqil janr sifatida inkor etilishi masalasi ham yoritiladi. Ushbu janrni mustaqil deb hisoblamaydigan olimlar tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning birikishi nomuvofiq ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, tarixiy roman to‘liq tarixiy asar bo‘la olmaydi, chunki unda real voqealar badiiy to‘qima bilan qorishib ketadi. Bu esa uni mutlaq haqiqatga da’vo qilish imkoniyatidan mahrum etadi. Zero, san’atkor faqat o‘zi kuzatgan va boshidan kechirgan haqiqatni ifodalashi mumkin, deb hisoblaydilar.

N.Znamenskaya, Y.Andreev, L.Aleksandrova, I.Gorskiy, B.Reizov, G.Makarovskaya, L.Gorelova, S.Petrov, V.Kojinov, A.Bakanov¹² kabi adabiyotshunoslар tarixiy romanni to‘liq mustaqil adabiy janr sifatida tan oladilar va tarixiylikni uning asosiy mezonlaridan biri deb biladilar. Biroq har bir olim ushbu tushunchaga turlicha ma’no yuklaydi. Masalan, B.Reizov uchun tarixiylik – bu davr psixologiyasi va muammolarini ifodalash bo‘lsa, V.Kojinov uchun bu – tarixiy jarayonning inson xulq-atvori va ongida namoyon bo‘lishidir¹³.

Tarixiy roman tarixiy haqiqatga da’vo qila olmaydi, deb hisoblaydigan adabiyotshunoslар unda badiiy to‘qima mavjudligi sababli, uni istoriografik metaroman deb ataydilar. Bu konsepsiya kanadalik adabiyotshunos L.Xatcheon tomonidan ishlab chiqilgan. Istorografik metaroman o‘quvchining faol ishtirokini nazarda tutadi, ya’ni o‘quvchi muallifning muayyan tarixiy voqeа bo‘yicha material to‘plash va tadqiqot jarayoniga guvoh bo‘ladi¹⁴.

Biroq ayrim tarixiy nomuvofiqliklar kitobxonni o‘qiganlariga shubha qilishga majbur qiladi. Masalan, X.Mantelning Tyudorlar haqidagi trilogiyasida tarixiy haqiqatning badiiy talqinidagi to‘qimalarning haddan oshuvi ko‘plab o‘quvchilarda triliqiyada shafqatsiz fanatik sifatida tasvirlangan gumanist T.Morni¹⁵ qanday qabul qilish haqida chalkashliklarni keltirib chiqardi. Olimlar va tarixchilar hanuzgacha T.Morning bid’atchilarning ta’qibchisi va qatl etuvchisi sifatidagi hamda gumanist va “Utopiya” asarining muallifi sifatidagi obrazini qanday uyg‘unlashtirishni hal qila olmayaptilar.

¹¹ Прокурин Б.М. Историческая дилогия Хилари Мантел и «память жанра» // Филологический класс, 2016. – № 2 (44). – С. 78. (tarj. N.R.).

¹² Пасюкевич И.В. Художественное своеобразие исторических романов Томаса Кенилли / И.В. Пасюкевич. – Минск: БГУ, 2013. – С. 10.

¹³ Пасюкевич И.В. Художественное своеобразие исторических романов Томаса Кенилли / И.В. Пасюкевич. – Минск: БГУ, 2013. – С. 11.

¹⁴ Зусева-Озкан В.Б. Историческая поэтика метаромана: монография / В.Б. Зусева-Озкан. – М.: Intrada, 2014. – С. 23.

¹⁵ Logan G.M., Lewalski B.K., Abrams M.H., & Greenblatt S. eds. Sir Thomas More (1478-1535). The Norton Anthology of English Literature: The Sixteenth Century; The Early Seventeenth Century. 7th Ed. – New York: WW Norton, 2000. – P. 503.

Tarixiy roman janriga oid masalalarni o‘rganish natijasida kitobxon retsepsiyasi va muallif niyatini tadqiq etish birinchi o‘ringa chiqadi, to‘qima va haqiqat o‘rtasidagi nisbat esa, bizningcha, ikkinchi darajali masala hisoblanadi. Tarixiy roman muallifning ijodiy tasavvuri mahsuli ekanini anglash, tarixiy haqiqatni badiiy shaklda to‘liq yetkazishning imkonsizligini tushunishga olib keladi.

Dissertatsiyaning “*Xotira va tarix: mahalliy koloritni ifodalash tamoyillari va personajlar tizimi*” deb nomlangan uchinchi paragrafida XX-XXI asr tarixiy romanlarida romanistlar tomonidan muayyan personajlarning tanlanish sabablari, shuningdek, ingliz tarixiy romanlarida mahalliy koloritni ifodalash usullari tahlil qilingan.

Tadqiqotchilar P.Midlton va T.Vuds urushdan keyingi adabiyotga (1945-yildan keyin) e’tibor qaratib, xotira va tarixiy tasvirning o‘zaro ta’siriga alohida e’tibor beradilar. Tadqiqotchilar ushbu guruhga kiritilgan asarlar qanday qilib shaxsiy va jamoaviy xotiralar hikoyalarini shakllantirishi, madaniyatni tushunishga ta’sir qilishini o‘rganishlarini qayd etadilar. Shuning uchun tadqiqotchilar bunday asarlarni “xotira adabiyotlari” (*literatures of memory*)¹⁶ deb atash mumkinligini ta’kidlashadi. Ularning tahlil mavzusi yozuvchilar tomonidan ruhiy iztirob va o‘zlik muammolarini ochib beruvchi hikoyalarni yaratish uchun xotiraning qanday strategiyalardan foydalanishini o‘rganishdir.

XX asr Yevropa adabiyotida M.Reno, R.Greyvs va boshqalarning tarixiy romanlarida qahramonlik va epik tasvirda o‘ziga xos uslub mavjud. Zamonaviy yozuvchilarning ijodida an’anaviy tarixga nisbatan dekonstruktiv yondashuv tobora ko‘proq kuzatilmogda. XXI asrda mualliflar tarixni syujetga integratsiyalash orqali tarixiy tajribani anglashga intiladilar. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida yozuvchilar, shoirlar, rassomlar va boshqa ijodkor shaxslar haqidagi tarixiy hikoyalarni ommaviylashadi. Bu asarlarda, asosan, metaproza ustunlik qiladi. Bu adabiy o‘z-o‘zini aks ettirish shakli bo‘lib, unda matn o‘zining to‘qima ekanligiga ishora qiladi va ko‘pincha adabiy konvensiyalar bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Aytish joizki, metaproza elementlaridan foydalanish oddiy tarixiy hikoya cheklovlarini yengib o‘tishga va o‘tmishni erkinroq tasvirlashga imkon beradi.

Shuningdek, bobda mualliflar tasvirlanayotgan davrda “hozir” (yoki “mavjudlik”) effektini qanday yaratishi muhokama qilinadi. Buning uchun ular landshaft, arxitektura va kundalik turmush haqiqatlarini batafsil tasvirlaydilar, bu esa o‘quvchini tarixiy muhitga chuqur sho‘ng‘ishga olib keladi. O.A. Lidenkova talqinicha, “mahalliy makon odamlarni birlashtirish xususiyatiga ega, chunki bu ularning yagona hududda mavjud bo‘lish faktining o‘zidanoq kelib chiqadi. “Landshaft” va “tarix”, “landshaft” va “identiklik” tushunchalari shu tariqa uzviy bog‘liq bo‘lib qoladi”¹⁷.

XX-XXI asr tarixiy romanlarida romanistlarning muayyan personajlarning tanlash sabablari hamda mahalliy koloritni ifodalash usullarini o‘rganish natijasida

¹⁶ Middleton T., & Woods P. Literatures of Memory: History, Time and Space in Postwar Writing. – Manchester University Press, 2000. – P. 5.

¹⁷ Лиденкова О.А. Пространство как инструмент презентации истории в современной британской и белорусской прозе // Известия Уральского федерального университета. Сер. 2: Гуманитарные науки. Т. 25. – 2023. – № 1. – С. 100. – <https://doi.org/10.15826/izv2.2023.25.1.006>.

quyidagi xulosalarga kelindi: personajlar tanlovi romanistlar yashayotgan davrning chuqur o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Mahalliy koloritni ifodalash uchun mualliflar ko‘pincha atrof-muhit manzarasini batafsil tasvirlaydilar, shuningdek, hikoya matniga gavdalantirilayotgan davrning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi tarixiy voqealarini kiritadilar.

Dissertatsiyaning “**Xilari Mantelning tarixiy nasri: tarixni qayta ifodalash**” nomli ikkinchi bobi X.Mantelning Tyudorlar trilogiyasi doirasida Angliya tarixini aks ettiruvchi milliy afsonalarni qanday qilib tanqidiy qayta idrok etishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Madaniy-tarixiy tahlil asosida shakllangan tarixiy narrativlar va obrazlarning (masalan, Genrix VIII, Anna Boleyn, kardinal Vulsiga oid afsonalar) badiiy dekonstruksiya mexanizmlari aniqlandi va tasniflandi. Bunday dekonstruksiya orqali yozuvchi bu afsonalarning an’anaviy tarixiy romanning badiiy-genetik manbasi sifatidagi rolini oshib beradi, ayni paytda o‘z matnini ularning hukmron ta’siridan ozod qilgan holda, tarixning yangicha talqinini yaratadi. Matnda muallifning an’anaviy tasavvurlarni qanday buzishi hamda asosiy tarixiy voqealar va shaxslarning muqobil talqinlarini taklif qilishini ko‘rsatuvchi aniq misollar keltiriladi.

Dissertatsiyaning “*X.Mantel ijodi tarixiy roman janri kontekstida: an’ana va yangiliklar*” deb nomlangan birinchi paragrafida yozuvchi ijodining novatorlik xususiyatiga ega jihatlari ajratib ko‘rsatilgan.

Xilari Meri Mantel (1952-2022; ingl. Hilary Mary Mantel, tug‘ilgan familiyasi – Tompson (ingl. Thompson)), ingliz yozuvchisi, adabiy tanqidchi va ikki marotaba Boker mukofoti laureati bo‘lgan birinchi ayol, o‘zining tarixiy romanlari bilan mashhur. Uning Tomas Kromvel haqidagi trilogiyasi jumladan “Vulphol/Bo‘rilar zali” (“Wolf Hall”, 2009), “Ayblanuvchilarni keltiring/Jasadlarni olib keling” (“Bring Up the Bodies”, 2012) va “Ko‘zgu va yorug‘lik” (“The Mirror and The Light”, 2020)¹⁸ katta shuhrat qozongan.

Tarixiy janr asoschisi V.Skottning tarixiy romanı roman (*novel*) va romans (*romance*)¹⁹ aralashmasi bo‘lib, romanning asosi o‘tmishdagi voqealar, urf-odatlar va faktlar, romansning asosi esa hikoyani romantiklashtiruvchi sevgi hikoyasi ekanligidan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: X.Mantelning ijodida o‘tmishni tasvirlashga qaratilgan ilgari boshlangan tanqidiy yondashuv, ideallashtirish va romantizatsiyadan voz kechish, voqealarning orqa tomoni va tarixiy shaxslarning noaniqligini ko‘rsatishga intilish rivojlangan. Tarixga bo‘lgan yuqorida qayd etilgan novatorlik yondashuvi doirasida, fransuz adabiyotshunos-nazariyotchisi Elen Siksu tomonidan kiritilgan “ayol nasri” (*Écriture féminine*)²⁰ tushunchasini eslatish joiz. Feminizm adabiyot nazariyasining bu tarmog‘i 1970-yillarning boshida Fransiyada E.Siksu va L.Irigaray hamda Y.Kristevaning²¹ asarlari, shu jumladan,

¹⁸ Tarjimalar taddiqot muallifiga tegishli.

¹⁹ Ingliz tilida romanslar yirik ritsarlik romanlari va she’rlari bo‘lib, xalq dostonlari, odatda, balladalar deb ataladi.

²⁰ Showalter E. Feminist Criticism in the Wilderness // Critical Inquiry, 1981. – № 8 (2). – Р. 179-205. Режим доступа: <https://www.jstor.org/stable/1343159> (дата обращения: 23.10.2025).

²¹ Irigaray L. Speculum of the Other Woman. – New York: Cornell University Press, 1985. – 367 p.; Kristeva J. Revolution in Poetic Language. – New York: Columbia University Press, 2024. – 304 p. Режим доступа: <https://dokumen.pub/qdownload/revolution-in-poetic-language-european-perspectives-a-series-in-social-thought-and-cultural-criticism-0231214596-9780231214599.html> (дата обращения: 23.10.2025).

psixoanaliz nazariyotchisi B.Ettinger²² kabi boshqa nazariyotchilarning ishlari tufayli paydo bo‘lgan va keyinchalik kengaytirilgan. “Ayol nasri” tushunchasi an’anaviy maskulin yozuv uslubidan chekinishni anglatadi va ayollar tomonidan yaratilgan tilda va matnda madaniy hamda psixologik jihatdan farqlarning aks etishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadi.

An’anaviy tarixiy roman (ko‘pincha erkaklar tomonidan yozilgan) “katta siyosat”ning obyektiv rekonstruksiyasiga intilgan bo‘lsa, X.Mantel diqqatni tarixiy shaxslarning ichki dunyosiga o‘zgartiradi. Bu holatda “ayol nasri” uchun notipik subyekt sifatida namoyon bo‘ladigan T.Kromvel uning o‘ziga xos ichki dunyosi orqali o‘rganiladi. Bundan tashqari, Tyudorlar haqidagi trilogiyada ayol obrazlari (A.Boleyn, Y.Aragonskaya, D.Seymur va boshqalar) yovuz ayollar yoki qurbanlar sifatida emas, balki o‘z harakatlari patriarchal tizimdagagi gender mavqeyi bilan belgilanadigan murakkab subyektlar sifatida tasvirlangan bo‘lib, bu tarixiy material bilan ishslashda “ayol nasri”ning o‘ziga xosligini isbotlaydi. Binobarin, adiba tarixiy davrni psixologik jihatdan teran, tanqidiy va ko‘p istiqbolli tushunishni yaratish uchun postmodernizm va feministik nazariyaga xos usullardan foydalangan holda tarixiy romanni o‘zgartiradi.

X.Mantelning innovatsion uslubining asosiy xususiyati mavjudlik effektini yaratishda bo‘lib, unda kitobxon qahramon bilan birga yashayotgandek tuyuladi. Bu hissiyotni yaratishga ingliz grammatikasida *The Present Simple Tense* (oddiy hozirgi zamon) deb ataluvchi fe’lning zamon shaklidan foydalanish sezilarli darajada yordam beradi. Tyudorlar triloyiyasidagi hikoya uslubi tarixiy romanning klassik va eksperimental shakllaridan ham farq qiladi. Postmodernistik tarixiy romanlar ko‘pincha fragmentar hikoya, syujetning ko‘p qatlamliligi va shakl bilan eksperimentlar bilan ajralib turadi. X.Mantel esa postmodernistlarning ba’zi metodlaridan foydalansa ham (masalan, triloyyaning uchinchi jildida yaqqol ko‘zga tashlanadigan o‘z-o‘zini aks ettirish), ko‘proq yaxlit va izchil hikoyaga intiladi, shu bilan birga personajlar psixologiyasiga chuqur kirib boradi.

X.Mantelning tarixiy nasri Tyudor Angliyasining asosiy tarixiy voqealari va shaxslariga murojaat qilib, davr muhitini qayta yaratib, kitobxonga qiziqarli syujetni taklif etgan holda, shubhasiz, janr an’analarini saqlab qolgan. Biroq uning novatorligi postmodernistik paradigma ta’siri ostida bu an’analarni chuqur va ko‘p qirrali qayta idrok etishida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bobning “*X.Mantel triloyiyasi: Angliya tarixi va milliy o‘zlikni tanqidiy qayta talqin etish*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida ingliz tarixi va milliy qadriyatlar, urf-odatlar tizimini tanqidiy qayta baholashga qaratilgan jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Ko‘plab adabiyotshunoslar P.Rikyorning narrativ o‘zlik konsepsiyasiga tayanib, badiiy asardagi identiklik masalasiga murojaat qiladilar. P.Rikyor ta’kidlaydiki, insonning o‘zini tushunishi hikoya orqali shakllanadi va shaxsiy o‘zlik o‘tmish va kelajakni birlashtirishga yordam beradigan rivoyatlar (tarixlar) orqali yaratiladi. Uning fikricha, badiiy adabiyot insonning turli jihatlari sinovdan o‘tkaziladigan va

²² Ettinger B. The Matrixial Borderspace (essays 1994-1999). – USA: Minnesota University Press, 2006. – 208 p.

baholanadigan o‘ziga xos shaxsiyatlarni tadqiq qilish va yaratish laboratoriyasidir²³. Bu fikrni davom ettirib, tadqiqotchi N.A. Lunkova shunday xulosaga keladi: “[...] shaxsiy o‘zlikni shakllantirish uchun asarlarning vositachiligi mutlaqo zarurdir”²⁴.

Milliy o‘zlik nafaqat tarix, balki miflar orqali ham shakllanadi, deb ta’kidlash haqlidir. Masalan, sotsiolog L.G. Ionin shunday ta’kidlaydi: “Mif – vogelikdir, chunki u unga ta’sir qiladi, uni o‘zgartiradi, yaratadi yoki buzadi. [...] Mifologik o‘zlik haqiqiy milliy o‘zlik bo‘lib, aynan uning asosida madaniy va siyosiy “ustqurmalar” yaratiladi”²⁵. Milliy mif nafaqat millat tarixini aks ettiradi, balki zamonaviy voqealarni ham izohlay oladi, bugungi vogelikning muhim qismi hisoblanadi: “*You can’t know Albion, he says, unless you can go back before Albion was thought of. You must go back before Caesar’s legions, to the days when the bones of giant animals and men lay on the ground where one day London would be built. You must go back to the New Troy, the New Jerusalem, and the sins and crimes of the kings who rode under the tattered banners of Arthur and who married women who came out of the sea or hatched out of eggs, women with scales and fins and feathers; beside which, he says, the match with Anne looks less unusual. These are old stories, he says, but some people, let us remember, do believe them*”²⁶. Demak, dastlabki mifologik obrazlar davlat shakllanishining dastlabki bosqichida shakllangan, ularning milliy ongdagi mavjudligi tarixiy voqealar rivojlanishini belgilashda asosiy rol o‘ynaydi.

Tarixiy diskurs an’anaviy ravishda millatni deyarli mifologik o‘tmishga ildiz otgan tirik organizm sifatida²⁷ tasvirlagan va roman milliy qahramonlarni o‘z personajlariga aylantirib, ularni asosiy tarixiy voqealarga joylashtirgan holda²⁸, bunday mifologik tasavvurlarni ham qo‘llab-quvvatlashga, ham tanqid qilishga o‘z hissasini qo‘shtigan. Bu esa, o‘z navbatida, tarixiy roman qahramoni va millat o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘liqlikni²⁹ ko‘rsatadi.

Reformatsiya davri va Genrix VIII hukmronligiga murojaat qilib, X.Mantel shakllangan miflar va stereotiplarni dekonstruksiya qiladi, milliy xarakterning ziddiyatli tabiatini fosh etadi (1-rasmga qarang):

²³Назаренко И.И. Самоидентичность и самоидентификация в художественном произведении: способы интерпретации. Принципы исследования коллизий самоидентификации: учебно-методическое пособие. – Томск: Издательство Томского государственного университета, 2024. – С. 16.

²⁴ Лунькова, Н.А. Рассказ о Другом как память о себе: концепты памяти и идентичности в цикле «Серебряные горы» Д. Энева // Память vs История. Образы прошлого в художественной практике современных литераторов Центральной и Юго-Восточной Европы: сборник статей / отв. ред. И. Е. Адельгейм. – М.: ИС РАН, 2019. – С. 284. (Серия «Современные литературы стран Центральной и Юго-Восточной Европы»). (tarj. N.R.).


²⁵ Ионин Л.Г. Социология культуры. – М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2004. – С. 98. (tarj. N.R.).

²⁶ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 94. “Albionni bilish mumkin emas,” deydi u, “agar Albion o‘ylab topilishidan avvalgi davrlarga qayta olmasangiz. Sezar legionlaridan avval, bir kuni London quriladigan joyda ulkan hayvonlar va odamlarning suyaklari yotgan kunlarga qaytishingiz kerak. Yangi Troya, Yangi Quddusga, shuningdek, Arturing yirtiq bayroqlari ostida chopgan va dengizdan chiqqan yoki tuxumdan chiqqan, tangachalari, suzgichlari va patlari bo‘lgan ayollarga uylangan qirollarning gunoh va jinoyatlariga qaytishingiz kerak; bundan tashqari, deydi u, Anna bilan nikoh unchilik g‘ayrioddiy ko‘rinmaydi. Bular eski hikoyalar,” deydi u, “lekin ba’zi odamlar, esimizda tutaylik, ularga ishonishadi.” (tarj. N.R.).

²⁷ Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 2006. – P. 227.

²⁸ Brantly S. The Historical Novel, Transnationalism, and the Postmodern Era: Presenting the Past. – New York: Routledge, 2017. – P. 136.

²⁹ Lukács G. The Historical Novel. Trans. H.Mitchell and S.Mitchell. – Boston: Beacon Press, 1963. – P. 35.



1-rasm. Xilari Mantel trilogiyasida Angliya tarixi va milliy o'zligini qayta idrok etish xususiyatlari

Xilari Mantel XVI asr Angliyada haqiqiy kuch muqaddas monarx emas, balki byurokratlar tasarrufidaligini ko'rsatadi. Hokimiyat manbayi va uning amalga oshirilishini ingliz tarixiy romanida qanday tasvirlanishini tubdan o'zgartiruvchi omil aynan "vorisiylik"dan "davlat apparati"ga e'tiborning siljishidir.

X.Mantel trilogiyasida Angliya tarixi va milliy o'zligi mohirlik bilan badiiy talqin etiladi, bu Tyudorlar davri va asosiy tarixiy shaxslar bilan bog'liq shakllangan stereotiplar va miflarni badiiy dekonstruksiya qilish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy davlat shakllanishi jarayonining yoritilishi, keng madaniy rezonans, ijtimoiy mobillik va hokimiyat mavzularining tadqiqi, shuningdek, o'tmis orqali milliy o'zlik masalalarining qo'yilishi, teran tarixiy tadqiqot va keng madaniy ta'sirga ega badiiy asar o'tmishta yangi talqinlar taklif etishga va bugungi kun haqidagi munozaralarni rag'batlantirishga qodir ekanini ko'rsatadi.

Bobning uchinchi paragrafi "*X.Mantel romanlarida tarixiy shaxsning tasviri: Tomas Kromvel obrazi*" deb nomlanadi. Tomas Kromvel obrazini tasvirlash usullari, shuningdek, muallifning ijodiy niyati yoritilgan. Tomas Kromvel obrazi orqali tarixiy roman qahramonining yangi modelini shakllantirish quyidagi mezonlar hisobga olingan holda asoslangan: a) muallifning o'tmishtagi muhim tarixiy voqealarning sabablari va ma'nosini ochib berishga intilishi (masalan, Kromvelning Reformatsiyadagi va monastirlarning tarqatib yuborilishidagi rolini batafsil tasvirlash orqali), bu uning taqdiri va ichki kechinmalari orqali ochib beriladi; b) Tyudorlar davri ijtimoiy tuzilmalari va madaniy normalarining badiiy mujassam etilishi, bu

jamiyatning turli qatlam vakillari bilan Kromvelning o‘zaro munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi; v) Kromvel qalb prizmasi orqali hikoyaning o‘tmishga yo‘naltirilganligi, ammo unda hokimiyat, axloq va shaxsiy tanlov masalalari tasvirida zamonaviylikning majburiy ifodasi.

T.Kromvel obrazi murakkab va ideallashtirilmagan. G‘azabdan o‘zini yo‘qotib, tengdoshini o‘ldirib qo‘ygani uchun otasi uni juda qattiq kaltaklagan, bu esa “Jasadlarni olib keling” asarida ohib beriladi, kaltaklash sahnasi qahramon xotiralarida vaqtı-vaqtı bilan paydo bo‘ladi. Trilogyanining asosiy voqealariga T.Kromvel allaqachon boy hayotiy tajriba va tarixiy davr chegaralaridan tashqariga chiquvchi donolik bilan kirib keladi. X.Mantel tomonidan yaratilgan T.Kromvel obrazi nafaqat bu tarixiy shaxs haqidagi an‘anaviy tasavvurlarni o‘zgartiradi, balki T.Morga bo‘lgan munosabatni qayta ko‘rib chiqishni ham taklif etadi.

X.Mantel, bir tomondan, T.Kromvelni qasosga intiluvchi fojiali qahramon sifatida tasvirlaydi, boshqa tomondan, uning qasoskor tabiatini unga sodiq qolganlarga nisbatan ajoyib mehr-shafqat bilan muvozanatlashtiradi. Bu sodiq tarafdarlar orasida ko‘plab ayollar borligi ma’lum bo‘ladi, ularning obrazlari orqali X.Mantel “Vulfxol” romanida boshlagan yo‘nalishni davom ettiradi: ayollar “elita tarkibida markaziy o‘rinni egallaydi”³⁰, ayni paytda, T.Kromvel xotinining so‘zlariga ko‘ra, ular yer yuzi aholisining yarmini tashkil etadi.

Arxivlar T.Kromvelning ruhoniylar haqida salbiy fikrda bo‘lganligini tasdiqlaydi, shuning uchun X.Mantel bu munosabatlarni ohib berish uchun T.Kromvel va qirol dialogini kiritadi. Genrix VIII T.Kromvelga soxta diniy hayot³¹ kechiruvchilarga nisbatan nafratini ifodalashga ruxsat bergenida, T.Kromvelning ruhoniylarning sotqinligiga qarshi so‘zlagan nutqida kambag‘allar va ularning bolalarini himoya qilish maqsadi ayonlashadi: “*I have seen monks who live like great lords, on the offerings of poor people who would rather buy a blessing than buy bread, and that is not Christian conduct. [. . .] The monks take in children and use them as servants, they don’t even teach them dog Latin*”³². T.Kromvel aslida katolik cherkovi va uning hukmronlikka intilishi o‘z izdoshlarining manfaatlaridan ustunligini tanqid qiladi.

X.Mantel tarixiy shaxslarning bir o‘lchamli tasvirlaridan chekinib, chuqur, ziddiyatli va psixologik jihatdan ishonchli portret yaratadi.

Tadqiqotning “**Xilari Mantelning tarixiy romanlar muallifi sifatidagi badiiy mahorati**” deb nomlangan uchinchi bobida adibaning hikoya uslubining o‘ziga xosliklarini, trioliya badiiy olamining zamon-makon jihatdan tuzilishini va X.Mantel trioliyasining leksik-uslubiy xususiyatlarini ohib beradi.

Ushbu bobning “*X.Mantel trioliyasidagi hikoya qilishning o‘ziga xosligi*” nomli birinchi paragrafi X.Mantelning hikoya qilish shakli bilan bog‘liq

³⁰ Wogan-Browne J. “Mother or Stepmother to History? Joan de Mohun and Her Chronicle.” Motherhood, Religion, and Society in Medieval Europe, 400-1400: Essays presented to Henrietta Keyser. – Farnum and Burlington: Ashgate, 2011. – P. 312.

³¹ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 218-219.

³² Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 219. “Men buyuk lordlar kabi yashaydigan, non sotib olishdan ko‘ra duo sotib olishni afzal ko‘radigan qashshoq odamlarning hadyalari hisobiga kun kechiradigan rohiblarni ko‘rganman, va bu masihiy xulq-atvor emas. Rohiblar bolalarni qabul qilib, ularni xizmatkor sifatida ishlatishadi. Rohiblar ularga hatto lotin tilini ham o‘rgatishmaydi.” (tarj. N.R.).

novatorligiga bag‘ishlangan.

Xilari Mantel trilogiyasining syujet tuzilishi ko‘p jihatdan antik tragediya tamoyillarini namoyish etadi, bu quyidagi voqealarda o‘z tasdig‘ini topadi: a) kardinal Vulsining inqirozi; b) katolik cherkovi bilan aloqalarning uzilishi; v) Tomas Kromvelning zafari va Tomas Morning qatl etilishi; g) T.Kromvelning tarixiy jarayonga o‘z ta’sirining cheklanganligini anglab yetishi; d) Tomas Kromvelning qatl etilishi.

Asosiy voqealar, masalan, Genrix VIII ning katolik cherkovi bilan aloqalarini uzishi, uning ajrashishlari va nikohlari, Anna Boleyn va Tomas Morning qatl etilishi, shuningdek, T.Kromvel tanazzuli bosh qahramonning idrok prizmasi orqali aks etadi. Boshqacha aytganda, kitobxon asosan voqealarni T.Kromvel nigohi orqali kuzatadi: *“Francis Bryan is laughing so hard that his horse twitches under him, uneasy, and skitters sideways, to the danger of passersby”*³³. Biz Yevropadagi qurg‘oqchilik haqida hech qachon bilmaymiz (bu voqea yozuvchi tomonidan tushirib qoldirilgan), chunki T.Kromvel kamerada qamalgan va uni kuzata olmaydi. Buning o‘rniga, jallod qatl taxtasiga yaqinlashganda, uning nafasidan sharob hidini his qilamiz. Baraban tovushini eshitamiz. T.Kromvelning ko‘kragida yuragi urayotganini his qilamiz. X.Mantel uslubining asosiy tamoyili – tarixiy hikoya qilishda subyektiv idrokning ahamiyati. Natijada o‘quvchi shunchaki tarixiy faktlarni bilibgina qolmay, balki voqealarni qahramon qalb prizmasi orqali his qiladi, bu X.Mantelga tarixni va uning insonga ta’sirini yangicha tushunish imkonini beradi.

Adiba Tomas Kromvelga yuzlab sahifalar davomida “u” (“u, Kromvel”) tarzida murojaat qiladi: *“Gardiner is still Master Secretary, but he, Cromwell, now sees the king almost every day. If Henry wants advice, he can give it, or if the subject is outside his remit, he will find someone else who can. If the king has a complaint, he will say, leave it with me: if, by your royal favour, I may proceed? If the king is in a good humour, he is ready to laugh, and if the king is miserable, he is gentle and careful with him”*³⁴. Bu uslub orqali tarix Tomas Kromvel ongining uzlusiz oqimi sifatida kechiriladi, bu esa voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lish effektini yaratadi.

X.Mantel trilogiyasining har bir romani – “Vulfxoll”, “Jasadlarni olib keling” va “Ko‘zgu va yorug‘lik” qahramonlarning batafsil ro‘yxati bilan boshlanadi. Ushbu tarkibiy element tarixiy qahramonlarning ustunligini ko‘rsatib, qarindoshlik va siyosiy aloqalarning murakkab tarmog‘ini yaratadi. Bundan tashqari, biografik ma’lumotlar dialoglar orqali hikoya matniga singdirilgan, bu muallifning faktik aniqlikka intilishidan dalolat beradi. Trilogiyani o‘qir ekanmiz, bosh qahramonlar – Genrix VIII, Vulsi, T.Kromvel, T.Mor va barcha ayollardan tashqari boshqa personajlarning taqdiriga ishonch hosil qila olmaymiz (an’anaviy tarixshunoslikdagi

³³ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 373. “Frensis Brayan shunchalik qattiq kulyaptiki, oti uning ostida bezovta bo‘lib silkinib ketdi va yo‘lovchilarga xavf solib, yon tomonga sirg‘alib ketdi.” (tarj. N.R.).

³⁴ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 368. “Gardiner hanuz bosh kotib, ammo u, Kromvel, endi deyarli har kuni qirolni ko‘radi. Agar Genrix maslahat istasa, bera oladi yoki mavzu uning vakolatidan tashqarida bo‘lsa, u bu masalada yordam bera oladigan boshqa kishini topadi. Agar qirolda shikoyat bo‘lsa, u shunday deydi: bumi menga goldiring, agar sizning qirollik marhamatingiz bilan men davom etsam bo‘ladimi? Agar qiro yaxshi kayfiyatda bo‘lsa, u kulishga tayyor, agar qirol xafa bo‘lsa, u unga muloyim va ehtiyotkor munosabatda bo‘ladi.” (tarj. N.R.).

bo'shliqlar tufayli). Trilogiyaning uchinchi qismining boshida faqat besh nafar personaj to'qima deb belgilangan: to'rttasi – T.Kromvelning uyiga kirib-chiqadigan personajlar, beshinchisi esa – Toverdagi qamoqxona nazoratchisi.

Shunday qilib, muallif tarixiy romanga novatorlik yondashuvini namoyish etibgina qolmay, balki o'quvchini tarixiy davrga olib kirishning noyob modelini ham yaratadi. Bunga bilvosita-to'g'ri nutqdan izchil foydalanish va uchinchi shaxs olmoshi "u"ga o'ziga xos tarzda murojaat qilish orqali erishiladi, bu Tomas Kromvelning subyektiv idrokiga to'liq sho'ng'ishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, syujet tuzilishidagi antik tragediya tamoyillari va dialoglar orqali biografik ma'lumotlarning batafsil singdirilishi ishonchlilik va dramatizm effektini kuchaytiradi.

Bobning ikkinchi paragrafi "*Trilogiya badiiy olamining zamon-makon nuqtayi nazardan tasviri*" deb nomlanib, xronotop masalalariga bag'ishlangan.

M.M.Baxtinning e'tiroficha, xronotopning fazoviy tarkibiy qismi uning topografik xususiyati bilan belgilanadi. Xronotop badiiy g'oyaning amalga oshirilish muhiti sifatida faoliyat yuritib, muayyan joylashuvni, badiiy g'oyaning amalga oshirilish nuqtasini ifodalaydi: "O'lim, yo'q qilish, inkor etish masalasining topografik xarakterini ta'kidlaymiz. "Topos" – "qayerda?" degan joy haqida so'raladi, barcha o'lgan va yo'q qilingan narsalarning joylashuvi izlanadi. Ayni paytda, kelajakning, hali tug'ilmagan, ammo tug'ilishi kutilayotgan, shakllanadigan joyini ham izlashadi. Bu qadimgi "topos" vaqt bilan chambarchas bog'liq; bu, aslida, xronotopdir"³⁵. Ushbu tadqiqot doirasida xronotopning yana bir muhim jihatni ham ajratib ko'rsatiladi, ya'ni psixologik makon. Rossiyalik tilshunos va filolog V.N. Toporovning qarashlarini qayd etish joiz, unga ko'ra psixologik makon personajning ijtimoiy dunyosi va uning o'z-o'zini anglash orqali namoyon bo'ladi³⁶. Shunday qilib, trilogiyadagi psixologik makon Tomas Kromvelning ichki dunyosini ochib beradi.

Xilari Mantelning Tomas Kromvel haqidagi trilogiyasi qahramon hayotining muhim davrini qamrab oladi. Birinchi jild 1500-yildan 1535-yilgacha ro'y bergan voqealarni qamraydi, ya'ni Tomas Morning qatl etilishigacha bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Ikkinci jild 1535-yilning kuzidan 1536-yilning yozigacha bo'lgan davr manzaralari gavdalantirilib, bu davrda Kromvel Anna Boleyn qatl etilganidan so'ng baron unvonini olgan. Uchinchi jild – "Ko'zgu va yorug'lik" hikoyani yakunlaydi, Kromvelning 1536-yil may oyidan 1540-yil iyulida qatl etilishigacha bo'lgan hayotining so'nggi to'rt yilini tasvirlaydi. Trilogiyadagi syujet chiziqli rivojlanadi, ammo hikoya doimiy ravishda T.Kromvel o'tmishining muhim nuqtalariga (retrospeksiya) qaytadi, ularni har safar yangicha ochib beradi. Butun trilogiya davomida mavjud bo'lgan qotillik mavzusi Kromvel qatl qilinishining yakuniy sahnasida o'zining yakuniy yechimini topadi. Uchta qatl – Tomas Mor (1-jild), Anna Boleyn (2-jild) va Tomas Kromvelning o'zi (3-jild) – asarning kompozitsion ritmini tashkil etadi.

³⁵ Бахтин М.М. Собрание сочинений. Т. 4 (1): «Франсуа Рабле в истории реализма» (1940 г.). Материалы к книге о Рабле (1930-1950-е гг.). – М., 2008. – С. 406. (tarj. N.R.).

³⁶ Топоров В.Н. Пространство и текст // Текст: семантика и структура. – М., 1983. – С 243.

X.Mantel turli makonlarni – qirolik saroyi va T.Kromvelning shaxsiy qarorgohini mohirona qarama-qarshi qo'llaydi, bu esa qahramonlarning ichki dunyosini, ularning fikrlari va his-tuyg'ularini ochib berish imkonini beradi. Personajlarning makondagi harakatlarining batafsil va aniq tasviri geografik koordinatalarning yuqori darajada ishonchli ekanligidan dalolat beradi, bu esa ularni XVI asr xaritasi bilan solishtirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, shaharlar, abbatliklar, munitsipal va qirolik qarorgohlarining nomlari qisqa va mazmunli ta'riflar bilan birga keladi, bu nafaqat davrning umumiy ruhini, balki noyob mahalliy koloritni ham ifodalaydi.

Xilari Mantelning Tomas Kromvel haqidagi trilogiyasining xronotopi Reformatsiya davrini va Genrix VIII hukmronligini o'zgaruvchan tempda qamrab oladi. Makon topografik ishonchlilikni psixologik chiqurlik bilan birlashtiradi, interyer va eksteryerlarni batafsil tasvirlash orqali qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. Syujet chiziqli rivojlanadi, T.Kromvelning hayotini (1500-1540) uch jidda qamrab oladi. Trilogiyaning ijtimoiy makoni jamiyatdagi turli qatlamlar o'rtasidagi farqlarni saroy hayoti va oddiy xalq turmushini qarama-qarshi qo'yish orqali namoyish etadi.

Bobning “*X.Mantel trilogiyasining leksik-stilistik xususiyatlari*” sarlavhali uchinchi paragrafida asarning tili hamda uslubini tahlil qiladi.

Yozuvchi yorqin tarixiy obrazlar yaratish va “o'z” hamda “begona” effektini hosil qilish uchun polilingvizmdan foydalanadi. Masalan, Uels tili Tomas Kromvelda oilaviy assotsiatsiyalarni uyg'otadi (masalan, opasining eridan nasihat: “*He picks up the money. He says, 'Hwyl, Morgan Williams. Diolch am yr arian. ' [...] 'Gofalwch am Katheryn. Gofalwch am eich business. Wela I chi eto rhywbryd. Pobl lwc. '*”³⁷). Lotincha trilogiyaning birinchi qismida katolik cherkovining rasmiy tili sifatida ustunlik qilsa-da, T.Kromvel tomonidan asosan huquqiy kontekstda qo'llaniladi (masalan, *locus standi*³⁸). Italian atamalarining qo'llanilishi (masalan, *Garzoni*³⁹) uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq til elementlarining ongsiz ravishda kiritilishiga misol bo'ladi.

Xilari Mantelning Tomas Kromvel haqidagi trilogiyasining metaforik xarakteri allaqachon uning romanlari nomlarida namoyon bo'ladi, ularning har biri chiqur ramziy ma'noga ega. X.Mantel tomonidan qo'llaniladigan eng yorqin usullardan biri allyuziyadir, ya'ni boshqa adabiy asarlar, afsonalar yoki tarixiy voqealarga ishora qilinadi. Xususan, muallif Anna Boleyn va turli mifologik ayol obrazlar o'rtasida parallelizm hodisasini yuzaga keltiradi, Genrix VIII ning ikkinchi xotinining salbiy xususiyatlarini shayton bilan bog'liq tasvirlarda ifodalaydi.

Allyuziyalardan tashqari, trilogiya narrativida obrazli qiyoslashlar keng o'rin olgan. Misol tariqasida T.Kromvelning bo'rilar obraziga murojaati keltiriladi, bu esa odamlarni yovvoyi hayvonlardan farqlab bo'lmas darajaga keltiruvchi inson tabiatining zo'ravonligi va qo'polligini ramziy ifodalaydi. T.Kromvel o'zi va

³⁷ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 12. “ – Hwyl, Morgan Williams. Diolch am yr arian. (Pullar uchun rahmat). Gofalwch am Katheryn. Gofalwch am eich business. Wela I chi eto rhywbryd. Pobl lwc. Opa-singlimga g'amxo'rlik qiling. Ishingizga qarang. Qachondir ko'rishamiz.” (tarj. N.R.).

³⁸ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 222. “[...] Sizda sudga murojaat qilish huquqi bor.” (tarj. N.R.).

³⁹ Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 342. “Yordamchi ishchilar.” (tarj. N.R.).

hamkasblari o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash haqida mulohaza yuritganda, ularni bo‘rilar sifatida tasavvur qiladi: “*Wolves snapping over a carcase. Lions fighting over Christians*”⁴⁰ va “*homo homini lupus*”⁴¹ degan lotin tilidagi iborani eslaydi, bu – odam odamga bo‘ri degan ma’noni anglatadi. Garchi bo‘rilar va bo‘ri xattiharakatlari trilogiyaning birinchi qismida ayniqsa yorqin ramz bo‘lsa-da, personajlar boshqa hayvonlar bilan ham qiyoslanadi.

Agar trilogiyaning dastlabki ikki qismida qahramonlarning ichki dunyosi asosan bilvosita nutq orqali ochib berilgan bo‘lsa, yakuniy jildda qahramonlarning ichki monologlari, xotiralari va mulohazalari muhim rol o‘ynaydi, bu esa hikoyaning introspektivligini kuchaytiradi. Masalan, ong oqimi yanada boy, T.Kromvel hayotining so‘nggi bosqichiga yaqinlashayotganida ortib borayotgan iztirob va ekzistensial kechinmalarini aks ettiradi.

X.Mantel polilingvism va allyuziyalardan tortib, hikoya qilish uslubining evolyutsiyasi va tilning metaforikligini chuqurlashtirishgacha bo‘lgan keng doiradagi badiiy usullardan mohirona foydalanadi. Bu nafaqat tarixiy va madaniy kontekstni ochib berishga, balki qahramonlarning ekzistensial kechinmalarini yetkazishga ham imkon beradi.

XULOSA

1. Xilari Mantel tarixiy romanining janr transformatsiyasi paradigmanning o‘zgarishi bilan tavsiflanadi, ya’ni epik, milliy voqealar tasviridan shaxsiy tarixiy idrokka o‘tish. Ushbu transformatsiya mifni dekonstruksiya qilish va postmodernistik subyektivlikni integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi. An’anaviy tarixiy roman shakllaridan farqli olaroq, X.Mantel o‘tmishning yagona talqinidan voz kechadi, muallifning adabiy-estetik tafakkuri o‘tmish va kelajak o‘rtasida badiiy halqa vazifasini bajaradi. “Ayol nasri” kontekstida yozuvchi ijodidagi o‘ziga xosliklar keng ko‘lamli voqealardan personajlarning shaxsiy kechinmalariga diqqatni o‘zgartirishda namoyon bo‘ladi. Bu esa an’anaviy romantiklik yoki tarixiy obrazlarini ideallashtirishdan qochgan holda, hokimiyat tuzilmasini subyektiv idrok orqali tanqidiy qayta anglashga imkon beradi.

2. X.Mantel ijodida an’anaviy milliy miflarning badiiy dekonstruksiyasi monarxiyaning mafkuraviy rolini qayta baholash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi va tarixiy jarayon markazida byurokratik subyektni (Tomas Kromvel misolida) tasvirlaydi. Bu esa ingliz tarixiy romanida hokimiyatni ifodalashning yangi, tanqidiy modelini shakllantiradi.

3. Tomas Kromvelning murakkab obraqi tarixiy romanning yangi qahramon modelini shakllantiradi. Bu muallifning o‘tmishdagi muhim tarixiy voqealarning sabablari va mohiyati personajlar taqdiri, davrning ijtimoiy tuzilmalari va madaniy me’yorlarining badiiy ifodasi, shuningdek, hikoyaning o‘tmishga yo‘naltirilganligi va unda zamonaviy unsurlarning mavjudligi hisobga olingen holda asoslandi. Natijada

⁴⁰Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 536. “Och itlar. O‘ljaga talashayotgan bo‘rilar. Xristianlarning jasadlari ustida jang qilayotgan sherlar.” (tarj. N.R.).

⁴¹Mantel H. Wolf Hall. – London: 4th Estate, 2019. – P. 572. “Inson insonga bo‘ri.” (tarj. N.R.).

hokimiyat muqaddas, yuqorida boshqariladigan kuch sifatida emas, balki qonunlar, hujjatlar, intriga va boshqaruv samaradorligiga asoslangan murakkab, ko‘pincha pragmatik, ya’ni byurokratiya faoliyati asosida shakllangan tizim sifatida tasvirlanadi.

4. X.Mantelning hikoya shakli bilan bog‘liq novatorligi – uchinchi shaxs olmoshi “u”ning o‘ziga xos qo‘llanilishi (voqelikni roviy nigohi orqali kuzatadi) va hikoyaning dramatizmi – tarixiy romanning yangi modelini shakllantirishda hal qiluvchi adabiy-estetik omil ekanligi isbotlandi. Bu usullar, metaproza elementlari, sahnalarning yuqori darajadagi teatrlashuvi (personajlar ro‘yxati, xaritalar va shajara daraxtlarini o‘z ichiga olgan holda) hamda an’anaviy sevgi chizig‘idan voz kechish bilan bir qatorda, Tomas Kromvelni chuqur subyektiv idrok etishni va tarixiy faktlarning o‘ziga xos tarzda aks ettirilishini ta’minlaydi. Muallifning individual uslubi o‘quvchini jalb qilishga va qahramonning ichki dunyosi bilan tarixiy voqelik o‘rtasida noyob o‘zaro ta’sirni yaratishga yordam beradi.

5. Tomas Kromvel obraqi tarixiy romanning yangi qahramon modelini shakllantirishi haqidagi holatni rivojlanirishda, uning nafaqat qasos, balki hayratlanarli hamdardlik bilan harakat qiluvchi fojiali shaxs sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. X.Mantel uning motivlarini ochish uchun retrospeksiyanidan foydalanadi va qahramonni ideallashtirmasdan, uning obyektiv, ko‘p qirrali portretini yaratadi, bu portret tarixiy manbalarga asoslangan bo‘lib, ichki kechinmalarning badiiy talqini bilan to‘ldirilgan. Bu nafaqat T.Kromvel haqidagi an’anaviy tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishga, balki uning zamondoshlari, masalan, Tomas Morga yangicha nazar tashlashga ham imkon beradi.

6. Trilogiyada bilvosita to‘g‘ri nutq dominant bo‘lib, Tomas Kromvelning subyektiv idrokini teran ifodalaydi, shuningdek, retrospeksiya va ellips faol qo‘llaniladi. Hikoyachi voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lgan gomodiyeyetik rivoyat turining ustuvorligi ishtirok va dramatizm effektini kuchaytiradi, bu X.Mantel tomonidan taklif etilgan tarixiy romanning yangi modeli uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

7. Xilari Mantelning Tomas Kromvel haqidagi trilogiyasi xronotopi Reformatsiya davrini va Genrix VIII hukmronligi davrini qamrab oladi. Makon topografik ishonchlilikni psixologik teranlik bilan uyg‘unlashtiradi hamda ularni batafsil tasvirlash orqali qahramonning ichki dunyosini ohib beradi. Syujet retrospektiv elementlarga ega bo‘lgan chiziqli rivojlanishga ega bo‘lib, Kromvelning (1500–1540) hayotini uch jildda qamraydi. Takrorlanuvchi motivlar va hozirgi zamonda aks etuvchi o‘tmish tarixiy uzlusizlik hissini yaratadi hamda siyosiy fitnalar girdobiga tortilgan qahramonlar halokatining muqarrarlik holatini ifodalaydi. Trilogiyaning ijtimoiy xronotopi jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlarni ohib beradi, saroy hayoti va oddiy xalq turmush tarzini qarama-qarshi qo‘yadi.

8. X.Mantel tomonidan faol qo‘llanilgan polilingvism (lotin, fransuz, uels tillari), ijtimoiy-madaniy allyuziyalar va ekfrazis matnni boyitib, janr xususiyatlaridagi o‘zgarishlarning qo‘shimcha tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, trilogiya syujetining tashkil etilishi, antik tragediya prinsiplarini aks ettirishi (kardinal Vulsining inqirozi, Tomas Kromvelning yuksalishi va qatl etilishi

kabi asosiy epizodlar orqali), shuningdek, yaqqol ifodalangan teatr elementlari rivoyatni dramatizatsiya qilish va tarixiy romanning yangi modelini shakllantirishning muhim jihatlari sanaladi.

9. X.Mantel trilogiyasi XXI asrda tarixiy roman evolyutsiyasining yorqin namunasidir. U zamonaviy muallif postmodernistik usullar va novatorlik rivoyat usullarini qo'llagan holda nafaqat shakllangan tarixiy rivoyatlarni qayta ko'rib chiqishga, balki o'quvchini o'tmisht va uning talqinlari bilan faol muloqotga tortuvchi chuqur, ko'p qatlamli matn yaratishga qodirligini namoyish etadi. Tarixiy roman muallif ijodiy tasavvurining mahsuli ekan, bu esa tarixiy haqiqatni badiiy shaklda to'liq yetkazishning imkonsizligi haqidagi xulosaga olib keladi.

10. Ushbu tadqiqot zamonaviy tarixiy roman va uning XXI asrdagi evolyutsiyasi haqidagi nazariy tasavvurlarning rivojlanishiga, shuningdek, X.Mantel ijodini ushbu jarayondagi asosiy figura sifatida tushunishga salmoqli hissa qo'shadi. Aniqlangan novatorlik yondashuvlari va janr xususiyatlaridagi o'zgarishlar orqali XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi Britaniya tarixiy romanlari tipologiyasi va ularning postmodernistik tendensiyalar bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ
УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

НАЗАРОВА РАЙХОН ШАВКАТОВНА

**ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ТРИЛОГИИ
ХИЛАРИ МАНТЕЛ В КОНТЕКСТЕ ЖАНРА ИСТОРИЧЕСКОГО
РОМАНА**

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.3.PhD/Fil5004.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Мухаммедова Нилуфар Элибоевна
доктор философии по филологическим
наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Хайруллаев Хуршидjon Зайневич
доктор филологических наук (DSc), профессор

Хажиева Феруза Мэлсовна
доктор филологических наук
(DSc), профессор

Ведущая организация:

**Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «_____» 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, массив G-9А, дом 21. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за №_____). Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, массив G-9А, дом 21. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «_____» 2026 года.

(Протокол реестра рассылки № _____ от «_____» 2026 года).

И.М. Тухтасинов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

Х.В. Самигова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.А. Якубов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении наблюдается обновление форм художественного выражения, что обуславливает необходимость пересмотра подходов к литературному творчеству как классических авторов, так и современных писателей. Одной из основных причин, обусловивших жанровое обновление исторического романа, является влияние постмодернизма. В XXI веке фокус повествования в исторических романах смещается с масштабных исторических событий на внутренний мир персонажа, поставленного в экстремальные условия прошлого. В центре внимания писателей оказываются ранее игнорированные или неоднозначно воспринимавшиеся личности. В этом контексте трилогия Х.Мантел представляет собой яркий пример трансформации жанра исторического романа, демонстрируя новые подходы к осмыслиению прошлого.

В современном литературном пространстве жанр исторического романа интерпретируется не на основе воссоздания исторической действительности, а как важный культурный феномен, формирующий историческое мышление и общественное сознание, с учётом вопросов памяти и идентичности, а также культурного и политического контекстов. В этом случае автор реконструирует историю, даже предлагая альтернативные версии. С этой точки зрения, трилогия Х.Мантел является ярким примером трансформации жанра исторического романа, демонстрируя новые подходы к осмыслиению прошлого. Романы писательницы отличаются инновационной формой и стилем повествования, новым типом исторического героя и альтернативным видением исторического прошлого Великобритании. Эти произведения не только обогащают жанр, но и вносят вклад в переосмысление культурно-исторических ценностей страны, что делает их важным объектом для научного анализа в системе эволюции исторического романа.

В контексте развития узбекского литературоведения, где традиционно уделяется значительное внимание исторической прозе и анализу шедевров мировой литературы, исследование трилогии Х.Мантел приобретает особую актуальность. Изучение новаторских подходов зарубежных авторов к историческому роману, таких как Х.Мантел, способствует расширению методологической базы и теоретических горизонтов отечественной филологии. Это позволяет не только глубже осмыслить универсальные тенденции в развитии жанра, но и выявить потенциальные пути для дальнейшего развития современной узбекской исторической прозы, а также стимулирует компаративные исследования. Высокая оценка значимости культурного наследия и художественного слова в Узбекистане, неоднократно подчёркиваемая руководством страны, подтверждает востребованность подобных исследований, способствующих формированию критического мышления и глубокого понимания взаимосвязей культур: «В нынешнее неспокойное и тревожное время сама жизнь – как никогда прежде – требует повышения роли и ответственности художественного слова в целях объединения всех людей с добрыми помыслами для совместного решения чрезвычайно сложных проблем современности,

преодоления глобальных вызовов и угроз, возникающих сегодня перед человечеством, воспитания молодёжи, которая составляет почти треть населения планеты, на основе высоких идей гуманизма»¹.

Диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 9 декабря 2021 года № ПП-36 «О дальнейшем совершенствовании системы поддержки развития культуры и искусства», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2023 года № ПП-380 «О мерах по реализации проекта „Тысяча книг для молодёжи“», а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 14 декабря 2020 года № 781 «Об утверждении Национальной программы развития и поддержки культуры чтения на 2020-2025 годы» и в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В области изучения творчества Х.Мантел и исторического романа в целом существует множество исследований. В отечественном литературоведении можно отметить научные труды М.Низамовой, У.Косимова, Д.Мухиддиновой, Г.Муродова, Т.Бобоева, Д.Куронова, Д.Ураевой, Б.Тураевой, Н.Каримовой, О.Акбарова², которые концентрируются на проблеме исторического жанра, а также национальной

¹Поздравление Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Ш.М., посвящённое участникам международной конференции «Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы». Режим доступа: <https://president.uz/ru/lists/view/1926> (дата обращения: 06.09.2024).

